«TRASTBANK» XUSUSIY AKSIYADORLIK BANKI KUZATUV KENGASHI QARORIDAN KO'CHIRMA

Toshkent sh. №PS-107 **2026 yil 23 iyul**

Majlis soat 10:00 da boshlandi

Qatnashdilar:
Bankning Kuzatuv kengashi Raisi: T.M.Sharipov
Bankning Kuzatuv kengashi a'zolari: M.V. Davidkin, M.SH. Karimova, S.M. Adilova, U.Z. Salimov, B.I. Xudoyarov, Z.K. Buzurxanova, S.A. Fayzullayev, Ataniyazov J.X.

Taklif etildi: S.R. Normuxamedov

Bankning Kuzatuv kengashi 9 kishidan iborat bo'lib, majlisda Bank Kuzatuv kengashining 9 ta a'zosi qatnashdi, ya'ni Bankning Kuzatuv kengashi majlisini o'tkazish uchun kvorum 100,0%ni tashkil etdi.

Kun tartibi:

1. Bank ustav kapitalini qo'shimcha oddiy va imtiyozli aksiyalar chiqarish va joylashtirish yo'li bilan ko'paytirish to'g'risida.
2. Bankning qo'shimcha aksiyalarini chiqarish, aksiyalarni joylashtirish tartibi va muomalaga kiritish shartlarini belgilash to'g'risida.
3. Bank aksiyalarining qo'shimcha chiqarilishi to'g'risidagi Qarorni tasdiqlash to'g'risida.

1. Kun tartibidagi birinchi masala yuzasidan Bank Boshqaruv raisi S.R.Normuxamedov so'zga chiqib, quyidagilarni ma'lum qildi.

2026 yil 22 maydagi Bank aksiyadorlarining navbatdagi yillik umumiy yig'ilishi qaroriga muvofiq Bank ustav kapitalini o'z kapitali hisobiga oshirish uchun o'tgan yillarning taqsimlanmagan foydasidan jami **1 052 894 736 842,11 so'm** miqdorida mablag'larni yo'naltirilishi belgilandi.

O'zbekiston Respublikasi Soliq Kodeksiga asosan quyidagilar belgilangan:

– ***41-modda*** *– yuridik shaxsning o'z kapitali (mol-mulki) hisobiga ustav fondi (ustav kapitali) oshgan taqdirda yuridik shaxs aksiyadorining (ishtirokchisining) qo'shimcha aksiyalar qiymati (ulush nominal qiymatining oshishi) tarzida olingan daromadlari dividendlar deb e'tirof etiladi;*

– ***337-modda*** *– Dividendlar tarzidagi daromadlarga 5% miqdorida soliq stavkasi belgilangan;*

– ***343-modda*** *– yuridik shaxs tomonidan O'zbekiston Respublikasining soliq rezidentiga to'lanadigan dividendlarga Soliq Kodeksida nazarda tutilgan tartibda to'lov manbaida soliq solinadi va bunday daromadlarni oluvchi tomonidan soliq bazasini aniqlashda chegirib tashlanadi.*

Yuqoridagilarga muvofiq, Bank ustav kapitalini o'z kapitali hisobiga oshirish uchun yo'naltirilgan summadan jami **52 644 736 842,11 so'm** miqdorida dividend solig'i chegirib

tashlandi, bunda Bankning ustav kapitaliga kapitalizatsiya qilish lozim bo‘lgan summa **1 000 250 000 000,00** *(bir trillion ikki yuz ellik million)* so‘mni tashkil etdi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 17.01.2022 yildagi PQ-90-sonli «Kapital bozorini qo‘llab-quvvatlashning samarali mexanizmlarini joriy etishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi Qarorining 1-bandiga ko‘ra, *2022 yil 1 apreldan 2028 yil 31 dekabrga qadar O‘zbekiston Respublikasining rezidenti va norezidenti bo‘lgan jismoniy shaxslarning aksiyalar bo‘yicha hisoblangan dividendlar tarzidagi daromadlari daromad solig‘idan ozod qilinganligi ta’kidlab o‘tildi.*

O‘zbekiston Respublikasining «Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida»gi Qonuni va Bank Ustavining 28-bandiga asosan, *Bank ustav kapitalini ko‘paytirish to‘g‘risidagi va Bank ustaviga tegishli o‘zgartirishlar kiritish haqidagi qarorlar Bank Kuzatuv kengashi tomonidan qabul qilinadi.*

Bank Ustaviga muvofiq, hozirgi kunda Bank ustav kapitali 1 000 250 000 000,00 *(bir trillion ikki yuz ellik million)* so‘mni tashkil etadi va har birining nominal qiymati 1 000,00 so‘m bo‘lgan quyidagi aksiyalarga taqsimlangan:

- *1 000 227 000 dona hujjatsiz shakldagi egasining nomi yozilgan oddiy aksiyalar;*
- *23 000 dona hujjatsiz shakldagi egasining nomi yozilgan imtiyozli aksiyalar.*

Yuqorida keltirilgan Qonunining 18-moddasiga asosan Bank ustav kapitali qo‘shimcha aksiyalarni joylashtirish yo‘li bilan ko‘paytirilganda qo‘shimcha aksiyalar faqat Bank ustavida belgilangan e’lon qilingan aksiyalarning soni doirasida joylashtiriladi.

Bank Ustavining 27-bandida Bank ustav kapitalini ko‘paytirish maqsadida joylashtirilgan aksiyalarga qo‘shimcha ravishda joylashtirishga haqli bo‘lgan e’lon qilingan aksiyalar soni har birining nominal qiymati 1 000,00 so‘m bo‘lgan 1 000 250 000 dona aksiya etib belgilangan, shu jumladan:

- *1 000 227 000 dona hujjatsiz shakldagi egasining nomi yozilgan oddiy aksiyalar;*
- *23 000 dona hujjatsiz shakldagi egasining nomi yozilgan imtiyozli aksiyalar.*

Yuqoridagilarni inobatga olgan holda, shuningdek Bankning moliyaviy barqarorligini ta’minlash, kapitallashuv darajasini oshirish va kelgusidagi faoliyatini moliyaviy jihatdan qo‘llab-quvvatlash maqsadida, Bank ustav kapitalini har birining nominal qiymati 1 000,00 so‘m bo‘lgan 1 000 227 000 dona hujjatsiz shakldagi egasining nomi yozilgan oddiy aksiyalar hamda 23 000 dona hujjatsiz shakldagi egasining nomi yozilgan imtiyozli aksiyalarni qo‘shimcha chiqarish va joylashtirish yo‘li bilan 1 000 250 000 000,00 so‘mga oshirish taklifi kiritildi.

Qo‘shimcha aksiyalar joylashtirilishi natijasida Bank ustav kapitali 2 000 500 000 000,00 so‘mni tashkil etadi.

2. Kun tartibidagi ikkinchi masala yuzasidan Bank Boshqaruv raisi S.R.Normuxamedov so‘zga chiqib, «Qimmatli qog‘ozlar emissiyasi va emissiyaviy qimmatli qog‘ozlar chiqarilishlarini davlat ro‘yxatidan o‘tkazish qoidalari» *(O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2009 yil 30 avgustda ro‘yxatdan o‘tkazilgan, ro‘yxat raqami 2000)* talablaridan kelib chiqib, Bankning qo‘shimcha oddiy va imtiyozli aksiyalarini joylashtirish shartlari va tartibini tasdiqlashni taklif qildi va majlis ishtirokchilarini qo‘shimcha oddiy va imtiyozli aksiyalarni joylashtirish shartlari va tartibi bilan tanishtirdi.

Shuningdek, Bank Ustavining 116-bandiga asosan, Bank tomonidan qimmatli qog‘ozlarni chiqarish va emissiya risolasini tasdiqlash to‘g‘risida qarorlarni qabul qilish Bank Kuzatuv kengashi vakolatida ekanligi ma’lum qilindi.

3. Kun tartibidagi uchinchi masala yuzasidan Bank Boshqaruv raisi S.R.Normuxamedov majlis ishtirokchilariga Bank boshqaruvi tomonidan Qimmatli qog‘ozlar emissiyasi va emissiyaviy qimmatli qog‘ozlar chiqarilishlarini davlat ro‘yxatidan o‘tkazish qoidalariga *(O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2009 yil 30 avgustda ro‘yxatdan o‘tkazilgan, ro‘yxat raqami 2000)* muvofiq aksiyalar chiqarish to‘g‘risidagi qaror ishlab chiqilganligini ma’lum qildi.

Kuzatuv kengashi a’zolari Bank aksiyalarining qo‘shimcha chiqarilishi to‘g‘risidagi Qaror matni bilan tanishib chiqishdi.

Bank Kuzatuv kengashi qaror qiladi:

Kun tartibidagi birinchi masala yuzasidan:

1. «Trastbank» xususiy aksiyadorlik banki ustav kapitalining miqdori nominal qiymati 1 000,00 so‘m bo‘lgan **1 000 227 000 dona** hujjatsiz shakldagi egasining nomi yozilgan oddiy aksiyalar hamda **23 000 dona** hujjatsiz shakldagi egasining nomi yozilgan imtiyozli aksiyalarni qo‘shimcha chiqarish va joylashtirish yo‘li bilan 1 000 250 000 000,00 so‘mga ko‘paytirilsin, hamda 1 000 250 000 000,00 so‘mdan 2 000 500 000 000,00 so‘mga yetkazilsin.

Bank Kuzatuv Kengashining majlisda ishtirok etgan barcha a’zolari ovoz berishda qatnashdi:

T.M. Sharipov	– «_tarafdor_»
M.Sh. Karimova	– «_tarafdor_»
M.V. Davidkin	– «_tarafdor_»
S.M. Adilova	– «_tarafdor_»
U.Z. Salimov	– «_tarafdor_»
B.I. Xudoyarov	– «_tarafdor_»
Z.K. Buzurxanova	– «_tarafdor_»
S.A. Fayzullayev	– «_tarafdor_»
J.X. Ataniyazov	– «_tarafdor_»

«tarafdorlar»	«_9_»
«qarshilar»	«_0_»
«betaraflar»	«_0_»

Kun tartibidagi ikkinchi masala yuzasidan:

1. Bankning umumiy qiymati 1 000 250 000 000,00 *(bir trillion ikki yuz ellik million)* so‘mlik, nominal qiymati 1 000,00 so‘m bo‘lgan **1 000 227 000 dona** hujjatsiz shakldagi egasining nomi yozilgan oddiy aksiyalari, hamda **23 000 dona** hujjatsiz shakldagi egasining nomi yozilgan imtiyozli aksiyalari muomalaga chiqarilsin.

2. Aksiyalarni joylashtirish tartibi va muomalaga kiritish shartlari qo‘yidagicha tasdiqlansin:

1. **Ushbu chiqarilishdagi egasining nomi yozilgan aksiyalar turi (oddiy yoki imtiyozli)** – *oddiy va imtiyozli aksiyalar.*

2. **Ushbu aksiyalar chiqarilishining shakli** – hujjatsiz.

3. **Ushbu chiqarilishdagi aksiyalarning nominal qiymati (so'm)** – 1 000,00 *(bir ming)* so'm.

4. **Ushbu chiqarilishdagi aksiyalarning soni (dona):**

– Hujjatsiz shakldagi egasining nomi yozilgan oddiy aksiyalar – 1 000 227 000 *(Bir milliard ikki yuz yigirma yetti ming)* dona;

– Hujjatsiz shakldagi egasining nomi yozilgan imtiyozli aksiyalar – 23 000 *(yigirma uch ming)* dona.

5. **Ushbu chiqarilishning umumiy hajmi (so'm)** – 1 000 250 000 000,00 *(bir trillion ikki yuz ellik million)* so'm.

6. **Ushbu chiqarilishdagi aksiyalar joylashtirilishining usuli (ochiq yoki yopiq obuna)** – ushbu chiqarilishdagi barcha aksiyalar Emitent aksiyadorlari o'rtasida ularga tegishli aksiyalar soniga mutanosib ravishda 1:1 koeffitsientda taqsimlash *(avval joylashtirilgan bir dona aksiya uchun bir dona qo'shimcha aksiya berish)* orqali qimmatli qog'ozlarning birjadan tashqari tashkil etilmagan (uyushmagan) bozorida hech qanday fuqarolik – huquqiy bitimlar tuzmasdan yopiq obuna orqali joylashtiriladi.

Emitentning aksiyadorlari orasida qo'shimcha aksiyalarini taqsimlash ushbu aksiyalarni chiqarish to'g'risidagi qaror davlat ro'yxatidan o'tkazilgan kundan keyingi 5 *(beshinchi)* ish kuni holatiga shakllantirilgan aksiyadorlar reestriga muvofiq amalga oshiriladi.

7. **Ushbu chiqarilishdagi aksiyalar joylashtirilishining muddati** – Chiqarilayotgan aksiyalar qimmatli qog'ozlar bozorini tartibga solish bo'yicha vakolatli davlat organi tomonidan davlat ro'yxatiga olingan kundan boshlab 60 kundan kechiktirmasdan joylashtiriladi.

8. **Ushbu chiqarilishdagi aksiyalarni joylashtirishni boshlash sanasi** – Aksiyalar chiqariluvi qimmatli qog'ozlar bozorini tartibga solish bo'yicha vakolatli davlat organi tomonidan davlat ro'yxatidan o'tkazilgan kundan keyingi **6 *(oltinchi)* ish kuni**.

9. **Ushbu chiqarilishdagi aksiyalarni joylashtirishni tugatish sanasi** – Mazkur chiqarilishning so'nggi aksiyasi joylashtirilgan kun. Biroq aksiyalarni joylashtirishni tugatish sanasi, mazkur chiqarilishdagi aksiyalar davlat ro'yxatiga olingan sanadan boshlab 60 kundan oshmasligi lozim.

10. **Ushbu chiqarilishdagi aksiyalar joylashtirilishining tartibi** – Aksiyalarni joylashtirish Emitent tomonidan mustaqil ravishda qonunchilikda belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

Mazkur chiqarilishdagi barcha aksiyalar Emitent aksiyadorlari o'rtasida, o'tgan yillarning taqsimlanmagan foydasini Emitent ustav kapitalini o'z kapitali hisobiga oshirish uchun yo'naltirilgan qismini *(dividendlarga nisbatan to'lanadigan soliq chegirilgandan so'ng)* kapitalizatsiya qilish hisobiga Emitent aksiyadorlariga tegishli aksiyalar soniga mutanosib ravishda 1:1 koeffitsientda taqsimlash *(avval joylashtirilgan bir dona aksiya uchun bir dona qo'shimcha aksiya berish)* orqali qimmatli qog'ozlarning birjadan tashqari tashkil etilmagan (uyushmagan) bozorida hech qanday fuqarolik – huquqiy bitimlar tuzmasdan yopiq obuna orqali joylashtiriladi.

Emitentning aksiyadorlari orasida qo'shimcha aksiyalarini taqsimlash ushbu aksiyalarni chiqarish to'g'risidagi qaror davlat ro'yxatidan o'tkazilgan kundan keyingi 5 *(beshinchi)* ish kuni holatiga shakllantirilgan aksiyadorlar reestriga muvofiq amalga oshiriladi.

Aksiyalar joylashtirilishi jarayonida anderrayterlar jalb qilinishi ko'zda tutilmagan.

11. Ushbu chiqarilishdagi joylashtirilayotgan aksiyalarni olishga bo'lgan imtiyozli huquqni amalga oshirish tartibi – Ushbu chiqarilishdagi barcha aksiyalar Emitentning barcha aksiyadorlariga, ularga tegishli aksiyalar soniga mutanosib ravishda taqsimlanishi sababli imtiyozli huquqni qo'llash ko'zda tutilmagan.

12. Ushbu chiqarilishdagi aksiyalar bahosi (baholari) yoki joylashtirish bahosini belgilash tartibi – Ushbu chiqarilishdagi aksiyalar barcha aksiyadorlarga nominal qiymatida, ya'ni 1 000,00 *(bir ming)* so'mdan joylashtiriladi.

13. Aksiyalarni to'lash shartlari va tartibi – Aksiyalarning qiymatini to'lash O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlarida belgilangan tartibda, Emitentning o'tgan yillarning taqsimlanmagan foydasini Emitent ustav kapitalini o'z kapitali hisobiga oshirish uchun yo'naltirilgan qismini *(dividendlarga nisbatan to'lanadigan soliq chegirilgandan so'ng)*, jami 1 000 250 000 000,00 *(bir trillion ikki yuz ellik million)* so'm miqdoridagi o'z mablag'larini kapitalizatsiya qilish orqali buxgalteriya hisobida tegishli yozuvlar kiritish yo'li bilan amalga oshiriladi.

14. Ushbu aksiyalar chiqarilishi amalga oshmagan deb topilgan taqdirda emitent tomonidan aksiyalar to'lovi sifatida olingan vositalarni qaytarish tartibi – Aksiyalar chiqarilishi amalga oshmagan yoki haqiqiy emas deb topilgan taqdirda aksiyalar uchun to'langan mablag'larning qaytarilishi quyidagicha amalga oshiriladi:

Emitent tomonidan ushbu holat to'g'risida qonunchilikda o'rnatilgan tartibda muhim faktlar *(qimmatli qog'ozlar chiqarilishini amalga oshmagan deb topish xaqidagi muhim fakt – 28)* haqidagi ma'lumot korporativ axborot yagona portalida *(www.openinfo.uz)*, «Toshkent» Respublika fond birjasining rasmiy veb-saytida *(www.uzse.uz)* va Emitentning rasmiy veb-saytida *(www.trustbank.uz)* e'lon qilinadi.

Shuningdek, ushbu chiqarilishdagi aksiyalar to'loviga yo'naltirilgan mablag'lar (aktivlar) ushbu aksiyalar chiqarilishi amalga oshmagan yoki haqiqiy emas deb topilgan kundan boshlab 5 *(besh)* bank kuni ichida Emitent tomonidan qonunchilikda belgilangan tartibda buxgalteriya hisobida tegishli yozuvlarni kiritish orqali qaytariladi.

Bank Kuzatuv Kengashining majlisda ishtirok etgan barcha a'zolari ovoz berishda qatnashdi:

T.M. Sharipov	– «_tarafdor_»
M.Sh. Karimova	– «_tarafdor_»
M.V. Davidkin	– «_tarafdor_»
S.M. Adilova	– «_tarafdor_»
U.Z. Salimov	– «_tarafdor_»
B.I. Xudoyarov	– «_tarafdor_»
Z.K. Buzurxanova	– «_tarafdor_»
S.A. Fayzullayev	– «_tarafdor_»
J.X. Ataniyazov	– «_tarafdor_»

«tarafdorlar»	«_9_»
«qarshilar»	«_0_»
«betaraflar»	«_0_»

Kun tartibidagi uchinchi masala yuzasidan:

3.1. «Trastbank» xususiy aksiyadorlik banki aksiyalarining qo'shimcha chiqarilishi to'g'risidagi Qaror ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

Bank Kuzatuv Kengashining majlisda ishtirok etgan barcha a'zolari ovoz berishda qatnashdi:

T.M. Sharipov – «_tarafdor_»
M.Sh. Karimova – «_tarafdor_»
M.V. Davidkin – «_tarafdor_»
S.M. Adilova – «_tarafdor_»
U.Z. Salimov – «_tarafdor_»
B.I. Xudoyarov – «_tarafdor_»
Z.K. Buzurxanova – «_tarafdor_»
S.A. Fayzullayev – «_tarafdor_»
J.X. Ataniyazov – «_tarafdor_»

«tarafdorlar» «_9_»
«qarshilar» «_0_»
«betaraflar» «_0_»

Bank Kuzatuv Kengashi raisi: **T.M. Sharipov**

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI TOSHKENT SH. XUSUSIY AKSIYADORLIK BANKI "TASHKENT" РЕСПУБЛИКА УЗБЕКИСТАН Г. ТАШКЕНТ ЧАСТНЫЙ АКЦИОНЕРНЫЙ БАНК "ТАШКЕНТ"
DEVONXONA
КАНЦЕЛЯРИЯ
ASLIGA TO'G'RI

Bayonnomani tuzish va imzolash sanasi: 27.07.2026 yil